Baxshilar ovozida yashagan tarix va qadriyatlar

Ro’zimurodova Norbibi Chorixo’jayevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

katta o’qituvchisi,f.f.f.d (PhD) **Xushbaqova Mahliyo Sherali qizi**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada baxshichilik san’atining mazmun-mohiyati, uning o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Baxshilarning dostonlarni ijro etishdagi mahorati, ularning xalq ma’naviyatini boyitishdagi hissasi hamda yosh avlod tarbiyasidagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, baxshichilikning bugungi kundagi rivoji va uni asrab-avaylash zarurati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Baxshichilik, doston, xalq og‘zaki ijodi, baxshi, do‘mbira, Alpomish, milliy meros, ma’naviyat, an’ana, tarbiya.

Annotation: This article discusses the essence of the art of baxshichilik, its role and significance in Uzbek *oral folk literature. It analyzes the skills of baxshi performers in reciting epic tales, their contribution to enriching the spiritual life of the people, and their role in educating the younger generation. The article also reflects on the current development of baxshichilik and the importance of preserving this cultural heritage.*

Keywords:*Baxshichilik, epic, oral folk literature, baxshi, dombra, Alpomish, national heritage, spirituality, tradition, education.*[1]

Baxshichilik o‘zbek xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va betakror san’at turlaridan biridir. Bu san’at asrlar davomida xalqning tarixi, orzu-umidlari, qahramonlik va vatanparvarlik tuyg‘ularini o‘zida mujassam etib kelgan. Baxshichilik nafaqat ijro san’ati, balki milliy ma’naviyatning muhim ko‘rinishidir.”Bugungi yoshlarimizni milliy ruhdagi vatanparvarlik,xalqona va xalqchil an’analariga sodiq holda tarbiyalashimiz zarur.Bu borada esa baxshichilik san’ati eng oliy hammaslak bo’ladi desak mubolag’a bo’lmaydi”[1]

Baxshichilik — dostonlarni do‘mbira jo‘rligida kuylab ijro etish san’atidir. Baxshi esa ushbu dostonlarni yoddan bilib, ularni ohang va ifoda bilan xalqqa yetkazuvchi ijodkordir. Bu san’atda so‘z, kuy va ma’no birlashib, ta’sirchan badiiy obrazlar yaratiladi.Bir so’z bilan aytganda baxshichilik san’atlar orasida betakrorligi bilan ham ajralib turadi.Shuning uchun ham bu san’at asrlar davomida o’z muxlislariga egaligi bilan birga e’tiborga molikdir.”Folklor va baxshichilik-bu o’chmas qadriyatlarimizni namunasidir.Har bir baxshi xalqorasida hurmat va e’tiborga sazovorligi shundaki,u xalq dardini qalban his qiladi vas hu dard bilan birga yashaydi.Tabiiyki,xalq o’z dardini tushunganlar bilan doim birgadir”[22]

[1] Mirziyoyev.Sh.M.Mamlakatimizda baxshichilik sohasini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to’g’risida PF-60-80,2021-yil.

[2] Karimov H. – “O‘zbek folklori va baxshichilik san’ati”.

Dastlab qo‘shiq shaklidagi, musiqa asbobisiz kuylanadigan asarlar yaratilgan. X-XI asrlarga kelibgina dostonlar do‘mbira jo‘rligida aytila boshlangan. Dostonning bunday namunalari Kaspiy va Orol dengizlari bo‘ylaridagi qadimgi ko‘chmanchi turkiy qabilalar orasida vujudga kelgan.

Epik dostonlarni yaratuvchi va kuylovchi badihago‘ylar ko‘payib borgan sari ustoz-shogird an’analari vujudga kela boshladi. Buning natijasida dostonchilik maktablari paydo bo‘ldi.

Qadimiy dostonchilikda XV-XVI asrlar doston taraqqiyotida jiddiy ko‘tarilish bosqichi, XIX-XX asrlar esa uning rivojlangan davri hisoblanadi.

Baxshichilik — o‘zbek xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy san’at turlaridan biri bo‘lib, u dostonlarni kuylash va ijro etish san’ati hisoblanadi. Baxshi esa ana shu dostonlarni yoddan bilib, ularni do‘mbira jo‘rligida kuylab beruvchi ijodkordir.

Baxshichilik an’anasi qadimdan Markaziy Osiyo xalqlari, xususan o‘zbek xalqi orasida keng tarqalgan. Bu san’at orqali xalqning tarixi, urf-odatlari, qahramonliklari va hayotiy qarashlari avloddan-avlodga og‘zaki tarzda yetkazilgan.

Baxshilar ijro etadigan dostonlar orasida eng mashhuri — Alpomish dostonidir. Bu asarda jasorat, vatanparvarlik, sadoqat va oila qadri kabi muhim g‘oyalar aks etgan.

Baxshilar faqat ijrochi emas, balki xalqning ma’naviy tarbiyachisi ham bo‘lgan. Ular to‘ylar, yig‘inlar va turli marosimlarda ishtirok etib, xalqni birlashtirgan va tarbiyaviy ahamiyatga ega hikoyalarni kuylagan.

Baxshichilik san’atida do‘mbira asosiy cholg‘u asbobi hisoblanadi. Baxshi kuylayotganda ovoz ohangi, ritm va hikoya mazmuni bir-biriga uyg‘unlashadi. Shu sababli tinglovchi dostonni faqat eshitmaydi, balki uni his qiladi [3]

Baxshilar ijrosida do‘mbira asosiy cholg‘u hisoblanadi. Ular ovoz ohangini o‘zgartirib, voqealarni jonli tasvirlaydi. Har bir baxshining o‘z maktabi va uslubi bo‘ladi. Ijro jarayonida tinglovchi o‘zini go‘yoki voqea ichida his qiladi.Baxshichilikning bugungi kunda katta ahamiyatga molik san’atlardan biriga aylanib ulgurdi.Ya’ni qadimiyligi bilan birga zamonaviylik ruhini ham o’ziga aks ettirdi.Nafaqat milliy qadriyatlar davomiyligi ,balki insoniylik tuyg’ularini ham innikos etdi.Shu jihatlarni inobatga olgan holda baxshichilik san’ati davlat siyosati darajasiga ko’tarildi.

Bugungi kunda baxshichilik san’ati davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Turli madaniy tadbirlar va Xalqaro baxshichilik festivali orqali bu san’at keng targ‘ib qilinmoqda. Bu esa yoshlarning milliy merosga qiziqishini oshiradi. Bugungi kunda baxshichilik san’ati davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Xalqaro baxshichilik festivali kabi tadbirlar orqali bu san’at turi yanada rivojlanmoqda va yoshlar orasida targ‘ib qilinmoqda. “Bu davrda baxshilar repurtuarida 250 tadan ortiq xalq dostoni bo‘lib, ularni “Tilla kampir”, “Sulton kampir”, “Jonon baxshi”, “Buron shoir”, “Jumanbulbul”, “Jossoq”, “Xonimjon xalfa”, “Buvi shoira”, “Suyav baxshi”, “Amin baxshi”, “Yo‘ldoshbulbul”, “Sultonmurod”, “Qurbonbek”, “Yo‘ldosh shoir”, “Suyar shoir” kabi mashhur baxshilar kuylab kelganlar. “Ergash Jumanbulbul o‘g‘li”, “Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li”, “Po‘lkan”, “Islom shoir”, “Sherna yuzboshi”, “Saidmurod Panox o‘g‘li”, “Berdi baxshi”, “Abdulla Nurali o‘g‘li”, “Umir shoir”, “Bola baxshi”, “Ahmad baxshi” kabi yetakchi san’atkorlar o‘zlariga zamondosh boshqa baxshilar bilan birgalikda bu epik an’anani davom ettirdilar”.[4]

Davr nuqtai nazardan baxshichilik sa’nati mingyillik tarixga ega bo’sa-da,har bir dostonimiz yangicha ruhda talqin etilayotgani quvonarli holdir.Albatta,bunday yutuqlar adabiyotimizni rivojlantirish uchun kerakli manbadir.Shunday ekan ma’naviyatimizni rivojlantirish,ularni asrlar davomida yashab kelishi uchun asos bo’ladi.Dostonlar bilan birga insoniyat ham qayta tug’ilganday

[3] Baxshichilik va dostonchilik an’analari. – Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti.
[4] O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan nashriyoti.

bo’ladi go’yo.Bu borada baxshinavis ustozlarni xizmatlarini e’tirof etish o’rinlidir.Ular yordamida milliy an’ana va qadriyatlarimiz avloddan avlodga benuqson va bekam-u ko’st yetib kelmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki,baxshichilik — o‘zbek xalqining boy ma’naviy merosi va tarixiy xotirasidir. U xalqning ruhiy olami, qadriyatlari va orzularini aks ettiradi. Ushbu san’atni asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish har birimizning muhim vazifamizdir.Shunday ekan bu an’anani bekam-u ko’st yosh avlodlarga yetkazib berish barchamizni oldimizdagi mas’uliyatli vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoyev.Sh.M.Mamlakatimizda baxshichilik sohasini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to’g’risida PF-60-80,2021-yil.

2. .Karimov H. – “O‘zbek folklori va baxshichilik san’ati”. Toshkent-2004.

3. .Baxshichilik va dostonchilik an’analari. – Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti.

4. O‘zbek adabiyot oshkent: Fan nashriyoti.2003-yil.